**O‘zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

# *70712501 – Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* magistratura mutaxassisligining malaka talablari

**Toshkent - 2023**

ЎзР ОУМТВ
№ 367
21 08 2023

**ISHLAB CHIQILGAN:**
Toshkent davlat transport universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA


| t/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari* (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari* (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari* avtomobil transporti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari | 4 |
| 1.2.2. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari* (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari | 5 |
| 1.2.3. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari* (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari* (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy vazifalari | 5 |
| 2. | *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari* (avtomobil transporti) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar | 6 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar | 6 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar | 7 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar | 7 |
| 2.4. | Kvalifikatsiyalar | 9 |
| | Bibliografik ma’lumotlar | 10 |
| | Kelishuv varag‘i | 11 |

## 1. *70712501 – Yer usti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

***70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)*** magistratura mutaxassisligi buyicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari buyicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi.**

**1.1.1.*70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *70712501–Yerusti transport vositalari va tizimlar (*avtomobil transporti*)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolati doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotiga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. *70712501–Yer usti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

**1.2.1. *70712501–Yer usti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

***70712501- Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)*** –"Muhandislik ishi" ta'lim sohasidagi mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida avtomobil transportini ishlatish, ularga texnik xizmat ko'rsatish, diagnostikalash va ta'mirlash hamda avtotransport korxonalarida kompleks masalalarni hal etish, shuningdek, avtomobil transportini rivojlantirish, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. *70712501- Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

– oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

– fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

avtotransport vositalari;

– davlat va nodavlat avtotransport koxonalari;
– texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari;
– diagnostik va texnologik jihozlar;
– texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarining texnologik jarayonlari;
– ishlab chiqarish texnik bazalari;
– ekspluatatsion materiallar va ehtiyot qismlar.
– ilmiy-tadqiqot jarayoni;
– tashkiliy-boshqaruv ob'ektlari;
– me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
– o'quv jarayoni.

### 1.2.3. *70712501- Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

– ilmiy-tadqiqot faoliyati;
– pedagogik faoliyat;
– ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;
– tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
– konsalting xizmati.

### 1.2.4. *70712501- Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

***70712501-Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)*** mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

– ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

– ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

– ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

– ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

– mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

– oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

– o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

– elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

– pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida**:

– ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

– ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;

– fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etish;

– iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash;

– amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

– tashkilot, korxona va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

– zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

– bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

– ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

– kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;

– loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishni ta’minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

**Konsalting xizmati faoliyatida:**

- mutaxassislik bo‘yicha avtomobil transporti sohasida mavjud holatning analitik sharhini ishlab chiqishi;
- erusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti) magistr mutaxassisligiga mos mavzularga oid loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashishi;
- ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatishi lozim.

## *2. 70712501- Yerusti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

– ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

– o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

– internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

- dasturlash/robotsozlik texnikasi/sun’iy intellekt uslublari va texnologiyalarini bilish;
- extiyotkorona ishlab chiqarish, ekologik fikr yuritish, ish beruvchi va xaridorlar diqqatini jamlay olish malakalariga ega bo‘lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

– ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

– ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

– ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

– ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– tashkilot, korxona va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– avtotransport soha korxonalarida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda soha tamoyillarini qo'llay bilishi;

– bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, soha bo'yicha statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

– avtomobil transporti bo'yicha texnik xavfsizlikni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

– soha bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish, ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar, ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

– loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

– texnik xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

– me'yoriy-huquqiy hujjatlarni espertizadan o'tkazishni bilish.

**2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar**

O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta'limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalarni ta'lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta'lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks

ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo‘llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirishi, o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko‘nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o‘tkazish maqsadida tajriba orttirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba orttirish jarayoniga yo‘llangan ta’lim oluvchi o‘quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasi asosida bajarishi ko‘zda tutiladi.

tajriba orttirish ta’lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta’minlashi lozim.

**2.3.1. *70712501- Yer usti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* ta’lim mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

| O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | 1380 | 46 |
| Tanlov fanlar | 360 | 12 |
| Ilmiy faoliyat | 1800 | 60 |
| Davlat attestatsiyasi | 60 | 2 |

**2.3.2. *70712501- Yer usti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti)* ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **1380** | **46** | **1, 2, 3** |
| 1.01 | ITM1101 | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | MFO`M1102 | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | ATVTEIR1103 | Avtomobil transport vositalari va uni texnik ekspluatatsiyasining istiqbolli rivojlanishi | 180 | 6 | 1 |
| 1.04 | TVTI1104 | Transport vositalari va tizimlarning ishonchliligi | 180 | 6 | 1 |
| 1.05 | TJBŤR1105 | Texnologik jarayonni boshqarish va eksperimentlarni rejalashtirish | 360 | 12 | 1, 2 |
| 1.06 | ATEMAU1106 | Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining me’yorlarini aniqlash usullari | 180 | 6 | 2 |
| 1.07 | ATMTTRT2107 | Avtomobil transportida moddiy texnik ta’minot va resurslarni tejash | 240 | 8 | 3 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **360** | **12** | **2, 3** |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar (3 ta fan)* | | | |
| | | **Jami** | **1740** | **58** | **1, 2, 3** |
| | | **Ilmiy faoliyat** | **1800** | **60** | **1, 2, 3, 4** |
| | | **Davlat attestatsiyasi** | **60** | **2** | **4** |
| | | **Jami** | **1860** | **62** | **1, 2, 3, 4** |
| | | **HAMMASI** | **3600** | **120** | **1, 2, 3, 4** |

**2.4. Kvalifikatsiyalar: muhandis –mexanik (tadqiqotchi-pedagog)**

**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi (magistratura dasturi), profil, o'quv davri, ta'lim texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, fan, texnika, metodologiya, tadqiqot, avtomatlashtirish, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

## KELISHUV VARAG‘I

## ISHLAB CHIQILDI:

**Toshkent davlat transport universiteti**

**Rektor** ____________ **O.Abduraxmanov**

202_ yil «____» __________
M.O‘.

## KELISHILDI:

**O‘zbekiston Respublikasi**
**Transport vazirligi**

**Vazir o‘rinbosari** ___________ **I. Abdugafarov**

202___ yil «______» __________

M.O‘.

**O‘zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi**
**Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor** ______________ **Sh.Yakubov**

202___ yil «______» __________
M.O‘.

**O‘zbekiston Respublikasi**
**Transport vazirligi huzuridagi**
**“O‘zavtotranstexnika” ilmiy ishlab chiqarish markazi**

**Bosh direktor**______________ **Sh.Erbekov**

202__ yil «______» ___________

M.O‘.

**I.Karimov nomidagi**
**Toshkent davlat texnika universiteti**

**Rektor**_______________ **S.Turabdjanov**

202__ yil «______» ___________

M.O‘.

**Toshkent davlat transport universiteti tomonidan 70712501- Yer usti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqaruvchilar va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent shahri "___" __________ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi xuzuridagi "O'zavtotranstexnika" ilmiy ishlab chiqarish markazi Bosh direktori Sh.I. Erbekov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, professor S.M.Turabdjanov, Toshkent davlat transport universiteti rektori, proffessor O.K. Abduraxmanovlar birgalikda Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70712501- Yer usti transport vositalari va tizimlari (avtomobil transporti) magistratura mutaxassisligi malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qaroriga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Taqdim etilgan magistratura mutaxassisligi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha asosiy kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib kelishildi.

Yuqoridagi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi xuzuridagi "O'zavtotranstexnika" ilmiy ishlab chiqarish markazi Bosh direktori** — **Sh.I. Erbekov**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori** — **S.M. Turabdjanov**

**Toshkent davlat transport universiteti rektori** — **O.K. Abduraxmanov**